**UDK: 371.384.3** **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss1/a207**

# BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING METODIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

# ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОЦЕССА ФОРМИРОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ТЕХНОЛОГИИ

# PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR IMPROVING THE PROCESS OF DEVELOPING METHODOLOGICAL COMPETENCE OF FUTURE TECHNOLOGY TEACHERS

**Nosirov Nodirbek Valijonovich[1]**

**[1]Nosirov Nodirbek Valijonovich** – Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti o‘qituvchisi

***Annotatsiya***

*Bugungi kunda zamonaviy maktablarga istiqbolli o‘qitish texnologiyalariga ega bo‘lgan o‘qituvchilarning kerakligi, boshqa tomondan esa, oliy ta‘limda tahsil olayotgan talabalarni o‘qitishning innovatsion va interfaol usullari hamda zamonaviy texnologiyalarni amalda qo‘llash bo‘yicha yetarli bilim, ko‘nikma, malakalarga ega emasliklari bilan izohlanadi. O‘qituvchining metodik kompetentligi – bu o‘qitish texnologiyasi, o‘qitishning innovatsion usullari va metodlarini universitet amaliyotida qo‘llash tajribasi bilan bog‘liq bo‘lib, psixologik, pedagogik va uslubiy bilimlar, ko‘nikmalar va qobiliyatlar to‘plami hisoblanadi. Maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish jarayonini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari va dars mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish yo‘llari yoritilgan.*

***Аннотация***

*Сегодня современной школе нужны учителя с перспективными технологиями обучения, а с другой стороны, с инновационными и интерактивными методами обучения студентов, обучающихся в высшей школе, и достаточными знаниями по практическому применению современных технологий. не имеют квалификации. Методическая компетентность преподавателя связана с опытом использования педагогических технологий, инновационных методов и методов обучения в практике вуза и представляет собой совокупность психолого-педагогических и методических знаний, умений и навыков. В статье освещены педагогические условия совершенствования процесса формирования методической компетентности будущих учителей технологии и способы эффективной организации уроков..*

***Abstract***

*Today, modern schools need teachers with promising teaching technologies, and on the other hand, innovative and interactive methods of teaching students studying in higher education, and sufficient knowledge on the practical application of modern technologies. Is explained by the fact that they do not have qualifications. Methodological competence of a teacher is related to the experience of using teaching technology, innovative teaching methods and methods in university practice, and is a set of psychological, pedagogical and methodological knowledge, skills and abilities. Pedagogical conditions for improving the process of developing methodical competence of future teachers of technology and ways of effectively organizing lessons are covered in the article.*

***Kalit so‘zlar:*** *bo‘lajak texnologiyafani o‘qituvchilari, metodik kompetentlik, kasbiy sifatlarini shakllantirish, motivatsion, konstruktiv, tashkilotchilik, boshqaruvchilik, mehnatsevarlik, pedagogik shart-sharoitlari, dars mashg‘ulotlari.*

***Ключевые слова:*** *будущие учителя технических наук, методическая компетентность, формирование профессиональных качеств, мотивационные, конструктивные, организаторские, управленческие, трудолюбие, педагогические условия, уроки.*

***Key words:*** *future technology science teachers, methodical competence, formation of professional qualities, motivational, constructive, organizational, management, hard work, pedagogical conditions, lessons.*

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish” ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirish metod va vositalarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etishga sharoit yaratadi. Respublikamizda bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik kompetentligini shakllantirishga qaratilgan axborot-ta’lim muhiti joriy etildi, metodik kompetentlikni rivojlantirishni ta’minlovchi moddiy-texnik baza, me’yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi [1].

Respublikamizda ham amalga oshirilayotgan tub islohatlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, kasb - hunar sirlarini o‘rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta‘lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri bo‘lib kelmoqda. Bugungi kunda kasb tanlashga turli nuqtai nazarlar asosida qarash mumkin bo‘lgan jarayondir Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2023 yilni “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim” yili deb e’lon qildi. Yil nomi prezidentimizning 20 dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida ma’lum qilindi. “Nima uchun yilga bunday nom berayapmiz? Biz O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minlashni ustivor vazifa etib belgiladik. Aslida ham, bizning eng bebaho boyligimiz, bu – bunyodkor xalqimizdir, duogo‘y ota-onalarimiz, navqiron avlodimiz emasmi? Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog‘ligi joyida bo‘lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo‘lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilayapmiz va bu yo‘ldan aslo to‘xtamaymiz”, - dedi davlatimiz rahbari[2].

Zamonaviy fan va texnika taraqqiyoti texnologiya fanini o‘qitishga yangicha yondashuvni, o‘quvchilarning bu fandan o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarining mazmuni va darajasiga yuqori talablarni qo‘ymoqda. O‘qituvchilik kasbi qiyin va ma’suliyatli bo‘lib, uni tanlash kasb tanlaydigan bitiruvchilardan imkon qadar ma’suliyat va jiddiylik bilan qabul qilishni talab qiladi.

Metodik kompetentlikni yanada rivojlantirishning asosiy omillari bo‘lajak o‘qituvchilarining barcha mutaxassislik fanlari bo‘yicha malaka talablarini kompetentsiyaviy yondoshuv asosida shakllantirish, fanlar bo‘yicha uslubiy majmualar tayyorlash, malaka oshirish kurslarini o‘qituvchi extiyojiga asoslangan holda tashkil etish va unda o‘qituvchining kasbiy va metodik tayyorgarligini kasbiy diagnostik tahlil qilinishini yo‘lga qo‘yish va o‘quvchilarda aniqlangan bo‘shliqlarni bartaraf etish chora-tadbirlarni ishlab chiqish zarur. Chunki, bo‘lajak o‘qituvchining zamonaviy bilimlarni, fan yangiliklarini bilishi, kasbiy va metodik kompetentlikning rivojlanishini nazarda tutishiga va zamonaviy barkamol yosh avlodni tarbiyalashiga asos bo‘ladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Metodik kompetentlik - kasbiy siklning umumiy kasbiy intizomlariga tegishli bo‘lib, talabaga kerakli miqdordagi bilimlarni beradi, shu asosda boshqa texnik fanlarni, shuningdek, fanlararo kurslarga kiritilgan kasbiy modullarni muvaffaqiyatli o‘rganish mumkin. Shunday qilib, fanning mazmunini o‘rganayotganda o‘rganilayotgan bilimlarning muayyan amaliy xarakatlarni bajarish uchun qo‘llanilishini, boshqa umumiy kasbiy intizomlarni va kasbiy modullarni o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni, shuningdek muammolarni hal qilishni ko‘rsatish kerak. Asosan fanni o‘qitish uchun eng mos keladigan muammoli ta’lim texnologiyasini qo‘llashdan iborat. Shuningdek, yanada samarali o‘qitish uchun boshqa texnologiyalarning elementlari, masalan, o‘yin texnologiyasi va guruhli o‘qitish texnologiyasi pedagogik jarayonga kiritilishi kerak. Ushbu fanni muvaffaqiyatli o‘rganish uchun talabalarning reproduktiv faolligini ularning mustaqil izlash faoliyatini faollashtirish, fazoviy fikrlash, ijodiy kasbiy fikrlashni rivojlantirish bilan birlashtirish zarur [3]. O‘qitish jarayonida ko‘plab tadqiqotchilar, o‘zbek olimlari izlanishlar olib bormoqda, ushbu izlanishlar asosan ta’lim jarayonining ijtimoiy ehtiyojlarini o‘rganishga va oshirishga qaratilgan bo‘lib bo‘lajak o‘qituvchilarning metodik kompetentligini takomillashtiradi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta‘lim tizimiga ilg’or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o‘zlashtirish zarurligi ko‘p marta takrorlandi. Ta’lim va tarbiyani zamonaviy texnikaning eng so‘nggi yutuqlaridan foydalangan holda olib borish ham sohaning rivoji sari yetaklaydi. Kasbiy kompetensiyaga yo‘naltirilgan faoliyat tuzilmasi gnostik, individual-psixologik xislatlar va umumkasbiy muhim sifatlarni modellashtirish orqali interfaollashtirish bosqichlari mazmunini texnologiya fani o‘qituvchilarining metodik sifatlarini belgilash hamda texnologiya fani mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish uchun multimedia, Case-study, rolli o‘yinlar, Smart texnology kabi interfaol texnologiyalardan foydalanilsa bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish modeli texnologiya fani o‘qituvchisiga qo‘yilgan talablar asosida takomillashtirilgan bo‘lar edi[4]. Bu borada o‘qituvchi va tyutorlar faoliyatini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Zamonaviy bo‘lajak o‘qituvchi endi nafaqat o‘zining funksional majburiyatlarini yaxshi bajarishi, shuningdek turli jarayonlarni loyihalay olishi, yechimlar qabul qilishi va ijodiy ishlarni bajara olishi kerak. Texnologiya fani mashg‘ulotlarida ham ta’lim

texnologiyalaridan biri bo‘lgan multimediani qo‘llash bo‘yicha real ehtiyoj mavjud-ki, bu esa tizimda multimedia vositalarini joriy qilish bo‘yicha to‘xtovsiz ishlashni talab qiladi. Chunki multimedia ta’lim va tarbiya oluvchilarga axborotning noan’anaviy manbalariga, yangi shakllariga va o‘qitish metodlariga yo‘l ochib beradi. Multimedia dasturlarida axborot uchta vosita – grafika, audio va video yordamida uzatiladi. Kompyuter grafikasi yordamida shakl tuzilmasining estetik qonunlarini maksimal amalga oshirish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu ko‘rgazmalilik o‘zida tasvirlanadigan obe’ktning real dunyo bilan almashtirish elementlarini birlashtiradi. Ko‘rgazmalilikning bunday kategoriyasi o‘zining mental ko‘rinishli tasvirni sxematikligi va shifrlanganligi bilan tasniflanadi. [5].

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

Texnologiya fanining o‘quv metodik ta’limotini raqamli texnologiyalar asosida takomillashtirish orqali ta’lim berilsa ta’lim oluvchilarga ta’lim olish usullari bir necha marta osonlashmoqda. Bunda esa ta’lim tizimi vosatilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Ta’lim beruvchilarga bunday vositalar bilan dars mashg’ulotlar o‘tkazish ta’lim sifatini oshirishni ta’minlaydi. Onlayn darslarda raqamli texnologiyalar qo‘llanilishi yaxshi samara berishi hammamizga ma’lum. Masalan, televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’lim olishning bir turi deb olsak bo‘ladi. Multimediani yuqorida keltirilgan barcha formatlarini taqdim etishda o‘quvchilarga turli multimediali darsliklar, qo‘llanmalar va boshqa o‘rgatuvchi dasturlardan foydalaniladi. Bunday o‘rgatuvchi dasturlarni yaratishda turli dasturiy vositalar va dasturlash tillaridan foydalaniladi[6].

Texnologiya darslarini samarali tashkil etishda bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi uchun dasturni yaratishda quyidagilar zarur bo‘ladi:

- bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi uchun dasturni turini tanlash kerak. Bu bosqichda dasturni asosiy maqsad va vazifalari va shuningdek uni amalga oshirish vositasi belgilab olinadi;
- bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi uchun dasturning nomiga mos mazmundagi joriy materiallarni to‘plash – matnlar, fotosuratlar va illyustratsiyalar, audioyozuvlar, videokassetalar, kompyuter fayllari. Bu to‘plangan materiallarning to‘liqligi dasturni yaratishga tayyorligimiz va uning sifat darajasini anglatadi;
- bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi uchun dasturning ssenariysi o‘zaro bog‘lanishlarini yozish. Bunda barcha to‘plangan materiallarning dastur ichidagi qurilishi, joylashuvi belgilanadi. Ana shu yerda dasturning barcha mantiqiy imkoniyatlari belgilanadi. Ssenariy o‘zida slaydlar (yoki fayllar) o‘rtasidagi bog‘lanishlarni, tuzilmasini va bu slaydlardagi o‘zgarishlarni, shuningdek, tovushli va videoeffektlarni ifodalaydi;
- bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi to‘plangan materiallarni kompyuterda qayta ishlab, dasturga qo‘shish uchun tayyorlash. Ya’ni matnli, grafikli, animatsion, video, tovushli fayllarni yaratish va qayta ishlash. Ularni yaratish uchun turli dasturiy vositalardan foydalaniladi;
- bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi ssenariyni muomiladagi dasturlar ko‘rinishida amalga oshirish kerak foydalanish jarayonida materiallar va ssenariyga zarur o‘zgartirishlar kiritish mumkin bo‘lsin;
- bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchisi – dastur foydalanuvchilari uchun metodik materiallar tayyorlash. Bunday materiallar dasturni ishlatish uchun foydalanuvchilarga ko‘rsatma berish maqsadida mualliflar tomonidan ishlab chiqiladi[8].

Bir so‘z bilan aytganda multimediadan texnologiya fani mashg‘ulotlarida foydalanish samarali deb aytish mumkin. Ammo aynan multimediali dars nima uchun mo‘ljallangan deb savol tug‘ilishi mumkin?

Multimediali dars nimalarga mo‘ljallanganligi keltirilgan:

- texnologiya darslarida yangi materialni o‘rganish, yangi axborotni taqdim qilish uchun;
- texnologiya darslarida o‘quv ko‘nikma, malaka va mahoratlarni o‘zlashtirish va o‘tilganlarni mustahkamlash uchun;
- texnologiya darslarida mavzularni takrorlash, olingan bilim, ko‘nikma, malakalarini amaliyotda qo‘llash uchun;
- texnologiya darslarida olingan bilimni umumlashtirish, tizimlashtirish uchun.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki multimedia orqali taqdim qilinayotgan mavzu bo‘yicha berilayotgan materiallar o‘quvchi tomonidan oson va yengil o‘zlashtiriladi[9].

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ta’lim jarayonida multimediali darslardan foydalanib amalga oshirilganda, bo‘lajak o‘qituvchidan muayyan malakaviy talablarni bajarish lozim bo‘ladi. Natijada o‘qituvchining pedagogik kompetentsiyasi rivojlanadi, solohiyati va pedagogik mahorati ortadi, o‘quvchining bilim darajasi va mashg‘ulot sifati yanada yuqori darajaga ko‘tariladi. Bu esa ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda va boshqarish, ta’lim mazmunini davriy ravishda yangilab borishga imkoniyat yaratadi.

**ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “2017-2021 yillarda O‘zbekistonni Rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF - 4947- sonli Farmoni //O‘zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlar to‘plami – T., 2017 y. (Ecree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 "On the Strategy of Actions for the Development of Uzbekistan in 2017-2021" No. PF-4947 //Collection of documents of the Law of the Republic of Uzbekistan - T., 2017.)

2.Mirziyoyev Sh.M. “Oliy majlisga va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan Murojaatnomasi”. Xalq so‘zi gazetasi. №272 son, 2-3 betlar. 21.12.2022 yil. (Mirziyoyev Sh.M. "Address to the Supreme Assembly and the people of Uzbekistan". People’s word newspaper. Issue #272, pages 2-3. 21.12.2022.)

3.Nosirov N.V. “Bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda pedagogik-psixologik omillardan foydalanishning ahamiyati” Central asian research journal for inter disciplinary studies (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 |ISSUE 4| 2022. DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-81-85 O‘zbekiston 4-son 82-85 betlar. 2022 yil. (Nosirov N.V. "The importance of using pedagogical and psychological factors in the training of future technological education teachers" Central asian research journal for inter disciplinary studies (sarjis) ISSN: 2181-2454. Volume 2 |ISSUE 4| 2022. DOI:10.24412/2181-2454-2022-4-81-85 Uzbekistan No. 4, pages 82-85. 2022 year.)

4. Muslimov N.A., Gaipova N.S. “Kasb ta’limi o‘qituvchilarini amaliy kompetentligini shakllantirishda individual psixologik xususiyatlar”. O‘qituvchilarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar bo‘yicha kompetentligi: muammo va yechimlar. Vazirlik tizimidagi oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari miqyosida ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Toshkent: TDPU. 2012 yil. 12-15 betlar. (Muslimov N.A. "The role of specialized subjects in the formation of practical competence of vocational education teachers". Pedagogical education (scientific-theoretical and methodical journal) 2012, pp. 61-64.)

5. Muslimov N.A. "Bo‘lajak kasb-hunar ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy shakllanishi". Monografiya. - T.: Fan, 2004 y. 126-128 betlar. (Muslimov N.A. "Professional formation of future vocational education teachers". Monograph. - T.: Science, 2004. - pp. 126-128.)

6. Muslimov N.A. “Kasb ta’limi o‘qituvchilari amaliy kompetentligini shakllantirishda ixtisoslik fanlarini o‘rni”. Pedagogik ta’lim (ilmiy-nazariy va metodik jurnal) 2012 yil, 61-64 betlar. (Muslimov N.A. "The role of specialized subjects in the formation of practical competence of vocational education teachers". Pedagogical education (scientific-theoretical and methodical journal) 2012, pp. 61-64.)

7. Muslimov N.A. “Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy – metodik asoslari.: Dis. ... ped. fan. dokt. – T.: 2007. 275-280 betlar. (Muslimov N.A. "Theoretical-methodical foundations of vocational training of teachers of vocational education.: Dis. ... ped. science. dr. - T.: 2007. pp. 275-280.)

8. Hamidov J.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda o‘qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo‘llash texnologiyasi. //-Toshkent. 2017 y. (Hamidov J.A. Technology of creation and application of modern didactic teaching tools in the training of future vocational education teachers. //-Tashkent. 2017.)

9. M.S.Usmonova., M.M.Aminov “Tehnologiya fani mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish metodlari”. //”Hayot faoliyati va xavfsizligi” va “Texnologik ta’lim” bakalavriyat yo‘nalishlarida texnik fanlarni o‘qitishning dolzarb muammolari - “Respublika ilmiy-texnikaviy anjuman materiallari”, Namangan 2021 yil. (M.S.Usmonova., M.M.Aminov "Methods of effective organization of technology training". //Current problems of teaching technical sciences in "Life activity and safety" and "Technological education" undergraduate courses - "Proceedings of the scientific and technical conference of the Republic", Namangan 2021.)